



MILLIY SAN'AT NAMUNALARIDA TASAVVUFİY MAZMUN VA G'OYALAR

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

“Alfraganus university”

ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.d.

Annotatsiya

Maqolada tasavvufiy qarashlar yoki tasavvufiy g'oyalarning san'at asarlarida aks etishining falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Milliy san'at namunalarida oddiylik, darveshona hayot tarzi, kamtarlik va boshqa tasavvufiy mazmunlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Milliy san'at, tasavvuf, badiiy asar, go'zallik, estetika.

СУФИЙКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ИДЕИ В ОБРАЗЦАХ НАЦИОНАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Турсункулова Шахноза Туйчиевна

“Alfraganus university”

доцент кафедры социальных наук, д.ф.н.

Аннотация

В статье анализируются философские аспекты отражения мистических взглядов или мистических идей в художественных произведениях. Образцы национального искусства раскрывают простоту, образ жизни дервишей, скромность и другие мистические содержания.

Ключевые слова: Национальное искусство, мистика, произведение искусства, красота, эстетика.

Zamonaviy milliy san'atda tasavvufiy mazmun mavjud, uni biz san'at namunalari, estetik qiyofalar va obrazlarda tez-tez aks etishini kuzatamiz. San'at namunalari yaratayotgan muallif ularda ijodkor tomoshabinni, o'quvchini ota-bobolarimizning yashash tarzi, xarakteri, mentaliteti, o'y-xayollari, orzu-umidlari, hayotiy tajribalari



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

bilan tanishtirishga, ularning hayot falsafasining ichki botiniy jihatlarini badiiy usulda tasvirlashga harakat qiladi, olam, borliq, inson to'g'risidagi go'zal g'oyalarini tushuntirib beradi. Hozirgi kunda milliy san'atda tasavvufiy mazmunning ifodalanishi me'morchilikda, haykaltaroshlikda, badiiy adabiyotda, rassomchilikda va ko'plab san'at namunalarida ko'rinmoqda. Bunga tasavvufiy g'oya va qarashlarni o'zida ifodalovchi badiiy asarlarni, shuningdek, tasavvufiy asarlarni o'rganuvchi ijodkorlar asarlarini kiritish mumkin.

Tasavvufiy meros ma'naviy qadriyat sifatida, milliy o'zlikni anglashda, farovon turmush tarzini yaratishda, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkurini, dunyoqarashini yuksaltirishda, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ilohiyotchi faylasuf Abu Homid G'azzoliyning (1058-1111-yillar) "Ihyo ulum ad-din" asarida shaxsda nafis did, estetik hissiyotning shakllanishi, shaxsning go'zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishida din va san'atning o'rni, muammolari aks etgan.

G'azzoliy san'atni she'r bilan taqqoslab tushuntiradi, oddiy so'z san'at emas, qofiya, vaznga solingan bayt, hijolari tartiblashgan nutq, qisqa bo'g'inlarni cho'zib, uzun bo'g'inlarni kesib talaffuz etish, so'zlarning ruknlarga bo'ysundirilishi, unga musiqaning jo'r bo'lishi san'atdir, estetik tuyg'ular esa, insonda tug'ma mavjud, san'at vositalari, nafosat ta'siri orqali ular faqatgina anglab yetiladi, deb ta'kidlaydi¹. G'azzoliyning qarashlaridan ma'lumki, tasavvufiy ma'lumotlar, qonun-qoidalar tizimining badiiy usulda yetkazilib berilishi, o'sha nazariyalarning ta'sir doirasini oshirgan. Tasavvufiy alloma va mutafakkirlar ta'limotning asosiy g'oyalarini badiiy usulda ifodalashining o'zi san'atdir, lekin o'sha davrda ishlab chiqilgan bu tasavvufiy g'oya va nazariyalar ta'limot, ilm-ma'rifat hisoblanadi. Shu bilan birga, tasavvuf ta'limoti yirik namoyandalarining ijodini chuqur o'rgangan G'azzoliy so'fiylarning haqiqat, go'zallik va ezgulik haqidagi fikrlari muntazam o'qish va fikr yuritish orqali emas, balki sinovlar, boshdan kechgan voqealar va qalb sifatlarining o'zgarishi bilan bog'liq ekanligini anglagan.

¹ Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере. – Москва: Наука, 1980. - 117-122 с.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

San'at, badiiy asar va ijodiy faoliyat jarayoni nochiziqli jarayon bo'lib, bu holatda muallifning bilimi, g'oyalari, tasavvuri, badiiy imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. San'at asarining obyekti olam, tabiat, jamiyatdagi narsa va hodisalar, inson hayoti va ichki ruhiy kechinmalari bo'lishi mumkin. Ijodkorning ijodiy faoliyati jarayonida san'at asarining obyekti badiiylilik, majoziylik nuqtayi nazaridan tasvirlanadi, ifoda etiladi. Mazkur ifoda va tasvirlash jarayoni aynan amalga oshirilmasligi bilan nochiziqli xarakterga ega. San'at, badiiy asar va ijodiy faoliyat jarayoni nochiziqli jarayon sifatida, kutilmagan mavzularni obyekt darajasiga olib chiqadi.

Tasavvufiy mazmunda yaratilgan san'at asarlari yoki badiiy asarlarni yaratishda ijodkorning tasavvufiy tafakkur tarzi, islom dini bo'yicha savodi, bilimi, diniy qarashlari muhim ahamiyatga ega, ya'ni madrasa, masjidlar, saroylar me'morchiligida islomiy, tasavvufiy bilim va qarashlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Asosan milliy me'morchilik san'atida ko'k gumbaz, minora, arab yozuvidagi bitiklar asosiy ramzlar hisoblanadi. Masalan, "Minora" arabcha "minoratun" so'zidan olingan bo'lib, mayoq degan ma'noni bildiradi. Islom madaniyatida minora o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, u Allohning yagonaligi – yolg'izligi ramzi bo'lish bilan birga uning baland va viqorli turishi Allohning ulug'ligi va hamma narsani bir ko'zda ko'rib turishi timsolidir. Bundan tashqari, "minoralar hamma narsaga bab-barobar qarash bilan birga, har qanday nokasliklardan o'zini baland qo'ymoq, g'urur va faxr ramzi hamdir. Shu ma'noda, diniy qadriyatlar, ular bilan bog'liq me'moriy obidalar ajdodlarimizning ma'naviy-ruhiy olamini, turmush-tarzi, hayot ma'nosi, yashashdan maqsadi va intilishlarini ramziy ifodalash bilan qimmatli va bugungi milliy tiklanish jarayonida ulardan oqilona foydalanish ahamiyatga molik"².

Chunki, "estetik tuyg'u, go'zallik haqida odamlardagi tushuncha, tasavvur bilan ularni o'ragan muhit o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri munosabat bo'lmasligi mumkin, lekin badiiy go'zallik ularni hayotga boshqacha qarash va boshqacha e'tibor yuritish salohiyatni kuchaytiradi, insondagi yangi-yangi ma'naviy his-hayajon to'lqinlarini

² Турובה Ш. Ислоний обидалар шарқ халқлари меъморчилигининг ноёб намунаси сифатида // Марказий Осиё илмий меросининг инсоният цивилизациясида туган ўрни: Республика илмий-назарий конференция тўплами. – Тошкент. 2016. 1-китоб. – 148 б.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

kuchaytiradi”³. Badiiy asardagi estetik kechinmalar, go‘zallikni his qilish orqaligina asarning tub mohiyatini anglash mumkin bo‘ladi. Shundagina asarda berilgan estetik mazmun ma’naviy ehtiyoj sifatida odamlarda go‘zal odatlar, ko‘nikmalar va faoliyatni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy o‘zbek san’atida ham tasavvufiy g‘oya va nazariyalar juda ko‘plab san’at turlarida o‘zini namoyon qiladi. Masalan, rassom B.Maxkamov o‘z kartinalarida tasavvufiy an’ana va madaniyatlarni tasvirlagan. Mazkur badiiy asarlarda ajdodlarimizning o‘ziga xos hayot falsafasi aks etgan, ijodkorning maqsadi tasavvufona hayot tarzini ifodalash orqali milliy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni anglash, ularni avaylab-asrashga da’vat etishdir.

Rus davlat muzeyi, Tretyakov davlat galeriyasi, Sharq xalqlari san’at muzeylari va boshqa ko‘plab muzeylarda so‘fiylar siymosi, tasavvuf falsafasi aks etgan bebaho san’at asarlari tomoshabinni o‘ziga jalb etib kelayotganiga tadqiqot ishida e’tibor qaratildi. Tretyakov davlat galeriyasida saqlanayotgan Aleksandr Volkovning “Anorli choyxona” kartinasida o‘rta asrlar an’anasini XX asr boshlaridagi qarashlar bilan uyg‘unlashtirgani, jismiy haqiqatni ruhiy haqiqatga aylantirishga uringan, so‘fiylarning qiyofasi esa o‘ychan qilib tasvirlangan, ko‘zlarida Allohdan qo‘rquv hissi ifodalangan, oq, qizil ranglar, bedana va umumiy asar mantig‘i insonga tasavvufiy falsafani idrok etishni taqdim etadi.

Akmal Nur ijodiga murojaat etish, shundan dalolat beradiki, u Sharq mamlakatlari rivoyatlari va badiiy yo‘nalishini shunchaki oddiy takrorlamaydi. U bir lavha, manzara va ko‘rinishdan boshqa mavzuga o‘tar ekan, Sharq xalqlari tarixi va taqdirida bo‘lgan badiiy-estetik ulug‘vorlik va majoziy hamohanglik mavjudligini obrazlar talqini orqali ta’kidlaydi. Sharqona mavzular uyg‘unligi, mavzular yaqinligi va tasviriy uslubning nafisligi rassomning sharqona islom dini tarixi, taqdiri va istiqboliga nisbatan bo‘lgan o‘ta noziklik ifodasidir. Rassomning 1990-yili ishlagan “Anor”, “Oila”, “Eltuvchi ho‘kiz”, “Namoz”, “Tutashish” asarlarida insoniy va diniy tasavvurlar chirmashib ketadi. Xalqimizda yangi chiqqan oyga qarab duo o‘qish, yaxshi niyatlar qilish mavjud. Lekin hech kimning qo‘li yangi oyga yetmaydi. Rassom asarni shunday ishlaganki, insonning yaxshi niyati, intilishi

³ Ўрокова О.Ж. Чўлпон ижодининг бадий-эстетик моҳияти. – Тошкент: Наврўз, 2016. – 21 б.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

chegarasiz. Inson va koinot o'rtasida sirli, jumboqli munosabat mavjud. Inson ana shu jumboqni ochish uchun intiladi. Buning uchun u osmon sari intilib, hatto oy bilan tutashishga to'g'ri keladi. Asarda kekxa kishining o'roqday yangi oyga qo'l cho'zib, duolar bilan nafas olayotgani nihoyatda jozibali ishlangan. "Namoz" kartinasi ham chuqur insoniy ehtiros va ishonchning dunyodagi eng nozik kechinmalar ekanligini ko'rsatishga qaratilgan"⁴.

Mazkur rasmlarda ijodkor tasavvufona oddiy va faqirona hayot tarzini go'zallik darajasiga olib chiqqan, asarda milliy madaniyatimiz, hayot falsafamiz, milliy merosimiz an'analari chuqur ifodalangan. Kartinalarni kuzatayotgan kishi qalbida milliylik, ajdodlar ruhini his qilish holatlari kuzatiladi. Tasviriy san'atda, avliyolar, farishtalar, muqaddas ziyoratgohlar va shunga o'xshash tasavvufiy mazmundagi asarlar juda ko'p. Shuningdek, islom madaniyatida Alloh tomonidan yaratilgan dunyoning bepoyon xilma-xilligi va go'zalligi san'atning boshqa ko'rinishlarida, ya'ni kaligrafiya, hattotlik va arnament naqshlarda ham mujassamlashgan. Qur'oni Karim oyat va suralari bilan masjid va minoralar, peshtoq yo'llari va muhtasham binolarning devorlari bezatilgan. Me'morchilik, arxitektura, musiqa, adabiyot, kino, teatr kabi ko'plab san'at turlarida badiiy asarlarni yaratishda tasavvufiy merosga alohida e'tibor qaratiladi.

Tasavvuf ta'limotining go'zal g'oyalari — tinchliksevarlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, nafsni tiyish va shu kabi ezgu g'oyalarning san'at asarlarida aks etishi, insonning ma'naviyati shakllanishiga, milliy o'zligini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir"⁵. Darhaqiqat, "Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolotga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir"⁶.

⁴ Maxmudov T., Mahmudova G. shaxsiy kutubxona arxivida saqlanayotgan qo'lyozmalardan foydalanildi.

⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021. – 267 б.

⁶ О'sha manba. – 277 б.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

Demak, ma'naviy jarayon sifatida, tasavvufiy san'at asarlari insonga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, yoshlarning ong-tafakkurini milliy ma'naviy merosimiz g'oya va nazariyalari bilan boyitishga xizmat qiladi. Tarixiy o'tmishimiz, ajdodlarimiz pand-nasihatlarini, tajribalarining amaliy ahamiyatini anglashga da'vat etadi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufiy g'oya va nazariyalarning san'atda namoyon bo'lishi, birinchidan, san'atning ham taraqqiyotiga, xalqchilik, insonparvarlik, jozibadorlik xususiyatlariga, o'ziga xos san'at turlarining paydo bo'lishiga keng ta'sir ko'rsatgan, tasavvuf san'ati, islom san'ati kabi tushunchalar yuzaga kelgan, ikkinchidan, tasavvuf ilmining she'riyatda aks etishi, tasavvuf adabiyotining paydo bo'lishiga olib kelgan, chunki asarlar she'riy shaklda bo'lib, ko'pincha Allohga duo va iltijolardan iborat bo'lgan, Payg'ambarga bo'lgan sog'in va muhabbat izhori bilan to'ldirilgan ijod namunalari bo'lgan, uchinchidan, badiiy asarlarda, tasavvufiy g'oya va nazariyalarning san'at asarlarida aks etishi insonga ma'naviy ozuqa beradi, ajdodlarimizning ulkan ma'naviy meroslari kuchli estetik taassurot qoldiradi.